



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV NUTQ MALAKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Vaisova Yodgora Sardorbek qizi

Urganch davlat pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)

2-kurs magistranti

ORCID: 0009-0001-8418-9132

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim paradigmasida muloqot kompetensiyasi-ning o'rni, raqamli texnologiyalar davrida bolalar nutqida kuzatilayotgan ijtimoiy-psixologik o'zgarishlar hamda nutqiy nuqsonlarning (SLCN) o'quv jarayoniga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, mavzuga oid xalqaro va milliy tajribalar o'rganilib, tegishli xulosalar hamda tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kommunikativ nutq, boshlang'ich ta'lim, muloqot kompetensiyasi, metodologiya, nutqiy rivojlanish, pedagogik yondashuv, nutqiy nuqsonlar.

Abstract: This article analyzes the methodological foundations and pedagogical opportunities for developing communicative speech skills in primary school students. It explores the role of communicative competence in the modern educational paradigm, the socio-psychological changes observed in children's speech in the digital age, and the impact of Speech, Language, and Communication Needs (SLCN) on the learning process. Furthermore, international and national experiences related to the topic are examined, followed by relevant conclusions and recommendations.

Key words: communicative speech, primary education, communicative competence, methodology, speech development, pedagogical approach, speech disorders.

Аннотация: В данной статье анализируются методологические основы и педагогические возможности развития навыков коммуникативной речи у учащихся начальных классов. Рассматривается роль коммуникативной компетенции в современной образовательной парадигме, социально-психологические изменения в речи детей в эпоху цифровых технологий, а также влияние нарушений речи, языка и коммуникации (SLCN) на учебный процесс. Кроме того, изучен международный и национальный опыт по данной теме, приведены соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: коммуникативная речь, начальное образование, коммуникативная компетенция, методология, речевое развитие, педагогический подход, речевые нарушения.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil-28-yanvardagi PF-60-son¹ "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda ta'lim sohasiga oid davlat dasturlarida o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, ona tili va o'qish savodxonligini o'rgatish bo'yicha ilg'or yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb talabidir.

Boshlang'ich sinflar o'quvchilari nutqini shakllantirish, ularning o'qib tushunish va to'g'ri ifodalay olish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim sifati uchun muhim omildir. Bu borada o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat, metodik bilim va kreativ yondashuv talab etiladi. Nutq – bu inson faoliyatining muhim shakli bo'lib, unda so'z, so'z birikmalari, gaplar orqali tafakkur ifodalanadi. Nutq orqali odamlar bir-biri bilan muloqot qiladi, o'z fikr

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>



va hissiyotlarini ifodalaydi hamda boshqalarga ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi rivojlangan nutq kishining jamiyatdagi faolligida katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'quvchi uchun nutq ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli o'qish, fikrlash va muloqot qilish qurolidir. Shu bois tilni jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda o'rgatish lozim. Bu esa o'quvchilarni kelajakda faol, fikrini erkin ifodalay oladigan shaxs sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "nutq – til vositalari orqali fikr bildirish va axborot almashish jarayoni" deb ta'riflangan, ya'ni so'zlovchining til vositalaridan foydalangan holda fikr bildirish harakati nutqdir ^[1].

"Pedagogik ensiklopediya"da esa nutq – odamlarning til vositalari orqali fikr almashish (kommunikatsiya) shakli sifatida ko'rsatiladi ^[2]. Nutq orqali inson o'z fikrini ifoda etadi, shu bilan birga fikrlash faoliyati ham rivojlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili ta'limida nutqini rivojlantirish eshitish, tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishga asos bo'ladi. Bu jarayonda bolalarning intellektual va estetik dunyoqarashi, axloqiy tarbiyasi ham shakllanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kommunikativ nutq ko'nikmalarini rivojlantirish shunchaki darslik talabi emas, balki hayotiy zarurat hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalar hukmronlik qilayotgan hozirgi davrda bolalarning muloqot madaniyatini yuksaltirish eng ustuvor pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiyalik tadqiqotchi M.V. Jumaniyozova va boshqa olimlarning kuzatishlariga ko'ra, bugungi kun bolalarining ijtimoiy-axloqiy qiyofasida murakkab o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan:

- axloqiy adaptatsiya – bolalarda umumiy qabul qilingan axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayoni qiyinlashgan;
- xarakterdagi o'zgarishlar – egoizm, injiqlik va manipulyatsiyaga moyillik (ayniqsa, ota-onalar bilan munosabatda) ortib bormoqda;
- muloqot to'siqlari – tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro aloqada agressivlik, o'ta passivlik, haddan tashqari uyatchanlik yoki giperfaollik kabi psixologik muammolar ko'zga tashlanmoqda ^[3].

Xalqaro ilmiy hamjamiyat, jumladan, Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi ham bolalardagi og'zaki nutq muammolari global tus olayotganini ta'kidlaydi. Nutq, til va kommunikatsiya ehtiyojlari (SLCN) quyidagi omillar natijasida yuzaga kelmoqda: genetik moyillik; ekologik va ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri ^[4].

Nutqiy rivojlanishdagi to'siqlar nafaqat muloqot jarayonini cheklaydi, balki bolaning bilim olish darajasiga hamda kelajakda jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanishiga jiddiy to'sqinlik qiladi. Kommunikativ nutqning rivojlanishida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari o'rtasidagi muvozanat muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutq ko'nikmalari odatda to'rt asosiy komponentga bo'linadi: tinglash, gapirish, o'qish va yozish. Ushbu ko'nikmalar orasida gapirish yuqori ahamiyat darajasiga ega bo'lib, auditoriya bilan og'zaki muloqotda hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Biroq zamonaviy ta'lim amaliyotida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari o'rtasida nomutanosiblik kuzatilmoqda.

Og'zaki muloqotning afzalliklari – vaqt tejamlorligi, darhol fikr-mulohaza olish imkoniyati, gapiruvchi va auditoriya o'rtasida kuchliroq aloqa o'rnatish – yetarli darajada qo'llanilmaydi. Aksincha, yozma ish shakllariga ortiqcha e'tibor qaratilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston ta'lim tizimida kommunikativ nutq muammosi yanada dolzarb bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi ^[7]. Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini mustaqil fikrlashga, boshqalar fikrini anglashga hamda o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Birinchi sinf o'quvchilari uchun diqqatni jamlashdagi qiyinchiliklar, nutq rivojlanishidagi muammolar, qo'l mushaklarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi omillar o'quv jarayonida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

D.R. Babayeva boshlang'ich va maktabgacha ta'lim jarayonida kommunikativ nutqni rivojlantirishda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi:

- nutqiy muhit – bolaning atrofida to'g'ri va boy lug'atga ega bo'lgan kattalar bo'lishi zarur;
- namunali nutq – o'qituvchining nutqi o'quvchi uchun nafaqat bilim manbai, balki namuna bo'lishi shart;
- kommunikativ ehtiyoj – o'quvchida gapirish va muloqotga kirishishga bo'lgan tabiiy ehtiyojni uyg'otish metodlari mavjud bo'lishi lozim.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish masalasi XX asrning 60–70-yillarida S. Dolimov tomonidan alohida o'rganilgan.

Y. Abdullayev, Q. Abdullayeva va K. Qosimova kabi tadqiqotchilar 80–90-yillarda, shuningdek, B. Turdiyev, A. G'ulomov, M. Qodirov, Sh. Yusupova, B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova singari olimlar keyingi yillarda, xususan, 2000-yillarda A. Hamroyev, Sh. U. Nurillayeva, O'. Ro'ziboyeva, G. M. Ahmedova, Sh. Yuldasheva, U. Masharipova, H. Bakiyeva tomonidan og'zaki va yozma nutqni shakllantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur metodistlar tomonidan ayrim hollarda adabiyot, ayrim hollarda esa ona tili va o'qish darslariga oid foydali metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan ^[8].

A. Sa'diy adabiyot ta'limida obrazlarni og'zaki hamda yozma tasvirlashga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa, S. Dolimov o'quvchilarda yozma bayon qilish va adabiy ijodiy faoliyatni shakllantirish orqali nutq boyligini rivojlantirish masalasini yoritgan.

Q. Abdullayeva o'zining “1-sinfda nutq o'stirish” nomli metodik qo'llanmasida o'quvchilarga tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, savod o'rgatish davrida mantiqiy mashqlarni tashkil etish, shuningdek, didaktik materiallardan foydalanish usullarini ko'rsatgan.

K. Qosimova esa “5-sinf ona tili darslarida lug'at ustida ishlash” nomli asarida lug'aviy mashqlarni tashkil etish metodikasini tahlil qilgan. B. Turdiyev yozgan “Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum” asarida yozma nutqning nazariy asoslari, yozma ishlarning turlari, kitob ustida mustaqil ishlash, ish qog'ozlarini to'ldirish, bayon va inshoga o'rgatish kabi masalalar keng yoritilgan.

A. G'ulomov va M. Qodirovlar tomonidan yozilgan “Ona tili o'qitish metodikasi” nomli qo'llanmada nutqni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, mashq turlarini tashkil etish bo'yicha muhim metodik ko'rsatmalar berilgan. M. Asqarova boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar tomonidan tayyorlangan “Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish” nomli o'quv qo'llanmada bog'cha yoshidagi bolalarning nutqiy rivojlanishi masalalari o'rganilgan ^[8].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchilarning nutqini rivojlantirish va lug'atini boyitish usullari ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Ona tili o'qitish metodikasi islohotlar natijasida yangi, zamonaviy yo'nalishga burildi. Uzlaksiz ta'lim tizimida til va nutqni alohida tahlil qilish, ona tili darslarini esa nutqni shakllantirish, bilim, ko'nikma, malaka va ijodiy fikrlashni uyg'unlashtiruvchi vosita sifatida ko'rish tobora muhim bo'lib bormoqda. Bu jarayonda ona tili elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olib, nutqiy bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining asosiy maqsadi turli mazmun va shakldagi mashqlar orqali o'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirishdan iborat.

Ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirish – bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi nutqiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan hamkorlikdagi amaliy ishdir. O'quvchilarning nutqini rivojlantirish doimiy pedagogik yo'naltirishni talab qiladi. Nutqni rivojlantirish nima? Agar o'quvchi nuqtayi nazaridan qaratilgan bo'lsa, nutqni rivojlantirish tilning talaffuzi, lug'aviy boyligi, grammatik tuzilishi va mantiqiy izchillikda ifoda etilishini faol ravishda o'zlashtirishdir. Agar bu jarayon o'qituvchi nuqtayi nazaridan baholansa, u holda bu o'quvchilarga yuqoridagi til elementlarini puxta o'zlashtirishlari uchun samarali metod va usullarni qo'llashdir. O'qituvchining vazifasi faqat darsga qiziqish uyg'otish bilan cheklanmaydi. U, shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda faol ishtirok etishi kerak. O'quvchilarni turli nutqiy holatlarda til birliklarini to'g'ri ishlata olishga, o'z nutqiga ongli munosabatda bo'lishga, har bir so'z uchun javobgarlikni his qilishga o'rgatish zarur.

Ona tili fani nafaqat nazariy bilim beradigan dars, balki o'quvchilarga hayot davomida kerak bo'ladigan til vositalaridan amaliy foydalanish malakasini shakllantirishga qaratilgan muhim ta'lim yo'nalishidir. Nutqiy bilim bilan nutqiy ko'nikma bir-biridan farq qiladi. Nutqiy bilim – bu tilning barcha darajalari bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish natijasida hosil bo'ladi. Nutqiy ko'nikma esa o'z fikrini turli uslublarda ifodalash jarayonida til vositalarini to'g'ri va mos ravishda ishlata olish malakasi hisoblanadi. Inson so'zlash jarayonida asosan so'zning shakliga emas, balki uning ma'nosiga e'tibor qaratadi va o'z fikrini aniq ifodalash uchun eng mos so'zni tanlaydi.

XULOSA

Til birliklarini tezkorlik bilan nutq yo'nalishiga moslab tanlay olish, ular orqali fikrni rejalashtirib va ravon ifoda eta bilish nutqiy ko'nikma sanaladi. Nutqni rivojlantirish metodikasi o'quvchilarda atrofda gilar bilan muloqot qilishga ehtiyoj va qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi. Ana shu holatda o'quvchining nutqi bosqichma-bosqich rivojlanadi va u o'z nutqiga e'tibor bilan qaray boshlaydi. Nutq nafaqat muloqot vositasi, balki o'quvchi uchun borliqni tushunish va dunyoni anglash vositasiga ham aylanadi. Samarali nutqiy muloqot uchun nutqda ayrim



sifatlar mavjud bo'lishi shart. Eng avvalo, nutq noaniq, shevaga oid, keraksiz, parazit yoki qo'pol so'zlardan xoli bo'lishi kerak.

Nutqning aniqligi, obrazlilik va emotsionalligi kabi xususiyatlar asosan ishlatilgan leksik birliklarga bog'liq. O'quvchilar o'z fikrini to'g'ri va to'liq bayon eta olish ko'nikmasini egallashi uchun o'qituvchi nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan, lug'at boyligini kengaytirishga qaratilgan maxsus mashqlarni muntazam tashkil qilishi lozim. Shu bois ona tili dasturi tarkibida tovush va harflardan tortib, so'z, gap va bog'lanishli nutq kabi bo'limlar o'z ichiga olingan. "Xat-savod o'rgatish va nutqni rivojlantirish", "O'qish va nutqni rivojlantirish", "Grammatika, imlo va nutqni rivojlantirish" kabi bo'limlarning mavjudligi nutqqa doimiy e'tibor qaratilishini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil-28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
3. O'zbekiston pedagogika ensiklopediyasi. I–II jildlar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015–2017.
4. Сходная проблематика отражена в работах по социально-коммуникативному развитию детей // Социальная сеть работников образования. – 2015. – [Электронный ресурс].
5. Introduction: Speech and Language Disorders in Children // NCBI Bookshelf. – National Academies Press, 2016. – P. 12–18.
6. The impact of the teachers' non-verbal communication on success in teaching // PMC. – 2017. – Vol. 5, No. 3.
7. Advantages and disadvantages of oral/verbal communication and written communication // GRIN Publishing. – 2024.
8. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish // Fan va ta'lim. – 2023. – 2-son. – B. 45–52.
9. Eshmuratov M. J., Sabirova Ch. A., Bekberganova N. O., Mullayeva M. K. Ona tili – o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Bookmany Print nashriyoti, 2026-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.